

INVESTITSION ARBITRAJDA UCHINCHI SHAXSLAR TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNI TARTIBGA SOLISHDAGI PROTSESSUAL VA AMALIY MUAMMOLAR

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro arbitraj va nizolarni hal
etish yo'nalishi magistranti
O'roqov Zafar Zoxid o'g'li
E-mail: urakoffzafar@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro investitsion arbitrajda uchinchi shaxslar tomonidan moliyalashtirishning protsessual va amaliy muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqot moliyalashtiruvchilarning arbitrlar xolisligiga ta'siri, axborotni oshkor qilish va xarajatlarni taqsimlash masalalariga qaratilgan. Qiyosiy tahlil asosida ICSID (2022), UNCITRAL va IBA (2024) hujjatlari o'rganilib, mazkur munosabatlarni tartibga solish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsion arbitraj, uchinchi shaxslar tomonidan moliyalashtirish, manfaatlar to'qnashuvi, arbitrlar mustaqilligi, xarajatlarni taqsimlash, da'voni ta'minlash choralari, ICSID qoidalari.

Аннотация: В статье анализируются проблемы финансирования третьими лицами в международном инвестиционном арбитраже, в частности: влияние спонсоров на независимость арбитров, раскрытие информации и распределение расходов. На основе регламентов МЦУИС (2022), ЮНСИТРАЛ и ИВА (2024) предложены решения для регулирования данных правоотношений.

Ключевые слова: инвестиционный арбитраж, финансирование третьими лицами, конфликт интересов, независимость арбитров, распределение расходов, обеспечительные меры, регламент МЦУИС.

Abstract: This article analyzes third-party funding issues in international investment arbitration, focusing on arbitrator impartiality, disclosure obligations, and cost allocation. By examining the guidelines of ICSID (2022), UNCITRAL, and the IBA (2024), the study proposes solutions to govern these relationships.

Keywords: investment arbitration, third-party funding, conflict of interest, arbitrator independence, cost allocation, security for costs, ICSID rules.

Xalqaro investitsion arbitraj tizimida so'nggi o'n yilliklarda namoyon bo'lgan yirik o'zgarishlardan biri bu uchinchi shaxslar tomonidan moliyalashtirish (keyingi o'rinlarda "TPF" deb yuritiladi) institutining investitsion arbitrajda tobora keng qo'llanishi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda xorijiy investorlar tomonidan Xalqaro investitsion nizolarni hal qilish markazida (keyingi o'rinlarda "ICSID" deb yuritiladi)

investitsiya kiritilgan davlatlarga nisbatan qo'zg'atilayotgan ko'p millionli da'volarning salmoqli qismi ixtisoslashtirilgan investitsion fondlar hamda moliya institutlari tomonidan qoplanmoqda¹. Bunday moliyalashtirish shartnomalarining mohiyati shundan iboratki, ishga aloqador bo'lmagan uchinchi shaxs (moliyalashtiruvchi) da'vogarning ishni ko'rish bilan bog'liq xarajatlarini o'z bo'yniga oladi. Mazkur kelishuv tavakkalchilikka asoslangan xususiyatga ega bo'lib, moliyalashtiruvchi faqatgina nizo da'vogar foydasiga hal etilgan taqdirdagina undirilgan summaning muayyan foizi ko'rinishida yoki kiritilgan sarmoyaga nisbatan belgilangan ustama miqdorida mukofot oladi. Aksincha, da'vo qanoatlantirilmagan holatda, moliyalashtiruvchi o'z sarmoyasini to'liq yo'qotadi.

Ushbu institutning huquqiy amaliyotga keng joriy etilayotganini xalqaro statistikalarda ham ko'rish mumkin. Eye on Global Transparency tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra 2022-yil 1-iyuldan 2025-yil 19-aprelgacha ochilgan 119 ta ishning 19 tasi TPF bilan bog'liq bo'lgan². Shuningdek, Queen Mary universiteti tomonidan o'tkazilgan xalqaro arbitraj bo'yicha global tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arbitraj ishtirokchilarining 87 foizi mazkur moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanishni ijobiy baholaydi³. Bu esa TPF institutining bugungi kunda investitsiya huquqida muhim ahamiyat kasb etayotganini bildiradi.

Shunga qaramay, mazkur tendensiya ilmiy-amaliy doiralarda ikki xil yondashuvni yuzaga keltirmoqda. Bir tomondan, TPF moliyaviy resurslari cheklangan yoki bankrotlik yoqasida turgan investorlar uchun odil sudlovga erishish (access to justice) huquqini kafolatlovchi va moliyaviy xavflarni diversifikatsiya qiluvchi samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, ushbu jarayon xalqaro arbitraj tizimining fundamental prinsiplariga jiddiy xavf tug'diradi⁴. Xususan, moliyalashtiruvchilarning ishtiroki arbitrlar xolisligi va mustaqilligiga ta'sir o'tkazishi, manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarishi, shuningdek, javobgar davlatlarning xarajatlarini qoplash (security for costs) bilan bog'liq da'voni ta'minlash choralarini qo'llashda murakkab amaliy muammolarni yuzaga keltiradi⁵. Shu sababli, mazkur mexanizmni faqatgina iqtisodiy emas, balki qat'iy huquqiy-protsessual doirada tartibga solish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

¹ Maya Steinitz, 'Whose Claim Is This Anyway? Third-Party Litigation Funding' (2011) 95(4) Minnesota Law Review 1268

² Toby McIntosh, 'New Information Disclosed on Level of Third-Party Funding of Investor Disputes · Eye on Global Transparency' (Eye on Global Transparency May 2025) <<https://eyeonglobaltransparency.net/2025/05/01/new-information-disclosed-on-level-of-third-party-funding-of-investor-disputes/>> accessed 17 May 2026.

³ Queen Mary University of London and White & Case, 'International Arbitration Survey: Current Trends and Future Prospects' (2024)

⁴ Eric De Brabandere and Julia Lepeltak, 'Third-Party Funding in International Investment Arbitration' (2012) 27(2) ICSID Review 379

⁵ Can Eken, 'Third-Party Funding in Investment Arbitration: A Critical Appraisal' (2021) Journal of International Arbitration

Xalqaro investitsion arbitraj tizimida arbitrning mustaqilligi va xolisligi odil sudlovni ta'minlashning fundamental asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu qoida arbitrning nizolashuvchi taraflar bilan har qanday bevosita moliyaviy, kasbiy yoxud shaxsiy aloqalardan xoli bo'lishini qat'iy talab etadi. Biroq TPF institutining jadal rivojlanishi mazkur fundamental prinsiplarga nisbatan jiddiy xavflarni yuzaga keltirmoqda.

Buning asosiy amaliy sababi shundaki, moliyalashtiruvchi subyektlar, odatda, arbitraj muhokamasida rasmiy taraf maqomiga ega bo'lmaydi hamda ularning nomlari arbitraj hujjatlarida bevosita aks etmaydi. Shunga qaramay, ular butun arbitraj jarayonini iqtisodiy jihatdan to'liq ta'minlab, ishning natijasidan bevosita manfaatdor bo'ladilar. Bunday bilvosita ishtirok oqibatida arbitr hamda moliya kompaniyasi o'rtasida avvaldan mavjud bo'lgan yoki davom etayotgan moliyaviy yoxud kasbiy aloqalarning e'tibordan chetda qolish ehtimoli ortadi. Ushbu muammoning amaliyotdagi yaqqol namunasi sifatida Silver Bull Resources Inc. v. United Mexican States ishida da'vogar tomonidan arbitr xolisligiga nisbatan bildirilgan e'tirozni (challenge) keltirish o'rinlidir⁶.

Muammoning tizimli xususiyatini inobatga olgan holda, xalqaro huquqiy hamjamiyat tomonidan tegishli normativ yechimlar ishlab chiqilmoqda. Bu boradagi eng muhim qadamlardan biri sifatida Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi (IBA) tomonidan 2024-yilda qabul qilingan "Xalqaro arbitrajda manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ko'rsatmalar"ni (IBA Guidelines on Conflicts of Interest in International Arbitration) ko'rsatish mumkin⁷. 2014-yilgi tahrirdan farqli ravishda, yangilangan Ko'rsatmalarning 6-Umumiy standartiga (General Standard 6) binoan, arbitraj muhokamasidan bevosita iqtisodiy manfaatdor bo'lgan uchinchi shaxslar manfaatlar to'qnashuvini aniqlash maqsadida "tarafning o'ziga" (identity of a party) tenglashtirilishi qat'iy belgilandi. Shuningdek, 7-Umumiy standart (General Standard 7) taraflar va arbitrlarga har qanday moliyaviy bog'liqlikni oshkor qilish bo'yicha imperativ majburiyat yuklab, taraflar zimmasiga bunday ma'lumotlarni aniqlash yuzasidan oqilona so'rov o'tkazishni joriy etdi.

Manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan eng muhim protsessual mexanizmlardan biri moliyalashtirish faktini oshkor qilish (disclosure) qoidalaridir. Biroq oshkor qilish majburiyatining ko'lami va chegaralari qanday bo'lishi xalqaro investitsion arbitraj huquqidagi bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Moliyalashtiruvchi subyektlar, odatda, o'zlarining shartnomaviy munosabatlari hamda moliyaviy ma'lumotlarini tijorat siri sifatida maxfiy saqlashga intiladi. Zero moliyalashtirish to'g'risidagi shartnoma shartlari javobgar davlatlarga oshkor etilsa, ular da'vogarning moliyaviy imkoniyatlari va chegaralaridan xabardor bo'lishi hamda

⁶ ICSID Case No ARB/23/14, Challenge Decision (2024)

⁷ International Bar Association, IBA Guidelines on Conflicts of Interest in International Arbitration (2024)

jarayonni turli asossiz iltimosnomalar kiritish orqali sun'iy ravishda cho'zish kabi protsessual mudofaa strategiyalarini (dilatory tactics) qo'llash xavfi yuzaga keladi⁸.

Ushbu qarama-qarshi manfaatlarni muvofiqlashtirish maqsadida ICSID qoidalarining 2022-yilgi tahririda muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, Qoidalarning 14-moddasiga muvofiq, arbitraj muhokamasida uchinchi shaxsdan moliyaviy yordam olayotgan taraf o'z moliyalashtiruvchisining nomi va manzilini e'lon qilishi qat'iy majburiyat sifatida mustahkamlandi⁹. Bu yerdagi e'tiborga molik jihat shundaki, agar moliyalashtiruvchi yuridik shaxs bo'lsa, arbitrlar xolisligini ta'minlash va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida uning ortida turgan yakuniy benefitsiar mulkdorlari (ultimate beneficial owners - UBO) to'g'risidagi ma'lumotlarni ham e'lon qilish amaliyoti shakllanib bormoqda.

Shu bilan birga, axborotni oshkor etish majburiyatining xalqaro standartga aylanib borish tendensiyasi boshqa doiralarda ham o'z aksini topmoqda. Xususan, BMT Xalqaro savdo huquqi komissiyasining (UNCITRAL) Uchinchi ishchi guruhi doirasida ishlab chiqilayotgan "XI Qoida" (Provision XI) loyihasida ham TPFni qat'iy nazoratga olish qoidalari muhokama ostida bo'lsa,¹⁰ O'zbekistonda Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) 2021-yilgi Arbitraj qoidalarining 33.1-moddasida TPF institutining mavjudligi hamda moliyalashtiruvchi shaxsni darhol oshkor qilish bo'yicha aniq protsessual majburiyatni belgilab qo'ygan¹¹.

Xalqaro investitsion arbitraj amaliyotida eng murakkab hamda ilmiy doiralarda keskin munozaralarga sabab bo'layotgan masalalardan yana biri ish yakuni bo'yicha arbitraj xarajatlarini taqsimlash (allocation of costs) hamda javobgar davlat manfaatlari yo'lida da'voni ta'minlash choralari (security for costs) qo'llash masalasidir. Xususan, arbitraj muhokamasida TPF faktining mavjudligi javobgarning xarajatlarini kafolatlash choralari belgilash talabini qanoatlantirish uchun yetarli holat sifatida e'tirof etilishi mumkinmi, degan masala ham hozirda TPF doirasida muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Jumladan, RSM Production Corporation v. Saint Lucia ishida xalqaro investitsion arbitraj tarixida ilk bor tribunal tomonidan da'vogar zimmasiga da'voni ta'minlash choralari doirasida tegishli moliyaviy kafolat taqdim etish majburiyati yuklatilgan¹². Tribunal ushbu qarorini qabul qilishda da'vogarning avvalgi arbitraj ishlari bo'yicha xarajatlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlash tarixi hamda uning noma'lum uchinchi shaxs tomonidan moliyalashtirilayotganligi faktiga asoslangan.

⁸ Stavros Brekoulakis and Catherine A Rogers, ICCA-Queen Mary Task Force on Third-Party Funding in International Arbitration (The ICCA Reports No 4, 2018)

⁹ International Centre for Settlement of Investment Disputes, ICSID Arbitration Rules (2022)

¹⁰ UNCITRAL Working Group III, Draft Provision XI on Third-Party Funding (2026)

¹¹ Tashkent International Arbitration Centre, TIAC Arbitration Rules (2021) art 33.1

¹² ICSID Case No ARB/12/10, Decision on Saint Lucia's Request for Security for Costs (2014)

Xuddi shunga o'xshash yondashuv Manuel Garcia Armas v. Bolivarian Republic of Venezuela ishida ham kuzatilib, tribunal uchinchi shaxs bilan tuzilgan shartnomada moliyalashtiruvchining javobgar xarajatlarini qoplash bo'yicha javobgarligini cheklovchi shart (non-recourse clause) mavjudligini aniqlaganidan so'ng, da'voni ta'minlash chorasini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilgan¹³. Biroq ICSID amaliyotida bunga qarama-qarshi yondashuvlar ham mavjud bo'lib, EuroGas Inc. and Belmont Resources Inc. v. Slovak Republic ishida tribunal da'vogarning jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgani hamda ishning uchinchi shaxs tomonidan moliyalashtirilayotgani xarajatlarni ta'minlash chorasini (security for costs) qo'llash uchun yetarli va obyektiv asos bo'la olmaydi, degan xulosaga kelib, javobgarning iltimosnomasini qanoatlantirishni rad etgan¹⁴.

Mazkur huquqiy muammoning murakkabligini inobatga olgan holda, ICSID qoidalarining yangilangan tahriridagi 53-moddasida da'voni ta'minlash choralari qo'llash masalasi qat'iy protsessual tartibga solindi. Unga binoan, tribunal ta'minot choralari qo'llashda barcha tegishli holatlarni, xususan, tarafning arbitraj xarajatlarini qoplash to'g'risidagi qarorni kelgusida ijro etish qobiliyati va niyatini (ability and willingness to comply) har tomonlama baholashi shart. Shuningdek, TPF faktining mavjudligi tribunal tomonidan e'tiborga olinishi ta'kidlansa-da, aynan shu holatning o'zi da'voni ta'minlash chorasini qo'llash uchun yagona va yetarli asos bo'la olmasligi ham mustahkamlandi. Ushbu huquqiy mezonlar yaqinda ko'rib chiqilgan José Alejandro Hernández Contreras v. Republic of Costa Rica ishida o'z tasdig'ini topdi.

Xulosa qilsak, TPF institutini xalqaro arbitrajda to'liq taqiqlash emas, balki uni qat'iy protsessual tartibga solish g'oyasi to'g'riligi borasida yakdil fikrlar mavjud. Bu borada arbitrlar xolisligini ta'minlash maqsadida IBA hamda ICSID standartlarida belgilanganidek, manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilish imkonini beruvchi oshkoralik rejimiga rioya qilinishi, ammo bu rejim moliyaviy shartnomaning barcha tijorat sirlarini asossiz ravishda ochmasligi lozim. Shuningdek, da'voni ta'minlash va xarajatlarni taqsimlash borasida ham tegishli yo'riqnomalarni (guidelines) amaliyotga tatbiq etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maya Steinitz, 'Whose Claim Is This Anyway? Third-Party Litigation Funding' (2011) 95(4) Minnesota Law Review 1268
2. Toby McIntosh, 'New Information Disclosed on Level of Third-Party Funding of Investor Disputes · Eye on Global Transparency' (Eye on Global Transparency May 2025) <<https://eyeonglobaltransparency.net/2025/05/01/new-information->

¹³ PCA Case No 2016-08, Procedural Order No 9 (2018)

¹⁴ ICSID Case No ARB/14/14, Procedural Order No 3 (2015)

disclosed-on-level-of-third-party-funding-of-investor-disputes/> accessed 17 May 2026.

3. Queen Mary University of London and White & Case, 'International Arbitration Survey: Current Trends and Future Prospects' (2024)
4. Eric De Brabandere and Julia Lepeltak, 'Third-Party Funding in International Investment Arbitration' (2012) 27(2) ICSID Review 379
5. Can Eken, 'Third-Party Funding in Investment Arbitration: A Critical Appraisal' (2021) Journal of International Arbitration
6. ICSID Case No ARB/23/14, Challenge Decision (2024)
7. International Bar Association, IBA Guidelines on Conflicts of Interest in International Arbitration (2024)
8. Stavros Brekoulakis and Catherine A Rogers, ICCA-Queen Mary Task Force on Third-Party Funding in International Arbitration (The ICCA Reports No 4, 2018)
9. International Centre for Settlement of Investment Disputes, ICSID Arbitration Rules (2022)
10. UNCITRAL Working Group III, Draft Provision XI on Third-Party Funding (2026)
11. Tashkent International Arbitration Centre, TIAC Arbitration Rules (2021) art 33.1
12. ICSID Case No ARB/12/10, Decision on Saint Lucia's Request for Security for Costs (2014)
13. PCA Case No 2016-08, Procedural Order No 9 (2018)
14. ICSID Case No ARB/14/14, Procedural Order No 3 (2015)